

УО'К: 547.495.2:654.3

doi 10.5281/zenodo.10811592

N,N¹-GEKSAMETILEN BIS-[(2,2¹- AMINO-AZOTOLUOLIL)-MOCHEVINA]

HOSILASI SINTEZI VA INGIBITORLIK XOSSASINI O'RGANISH



Xayitov Jonibek

(PhD) Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti,
Qarshi, O'zbekiston



Egannazarova Fazilat

(Assistent) Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute,
Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya. N,N¹-geksametilen bis-[(2,2¹- amino-azotoluolil)-mochevina] hosilalasini sintez qilib olish, fizik tahlillar asosida Rengen fazaviy tahlili, makromolyekulasi amorf va kristall strukturalarni isbotlash, IK-spektroskopiya usuli bilan hosil bo'lgan modda funksional gruppalarini isbotlandi. Bundan tashqari sintez qilib olingan birikmani ingibratorlik xossalari aniqlangan va Neft va gaz sanoati inshaotlarini karroziyadan himoyalash darajasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Rentgenofaza, 2,2¹-amino-azotoluolning, N,N¹-geksametilen, diffraktogramma, diazo-difenil, ingibratorlar, Debaya-Sherrera usuli, geksametilendiizosianat, konsentratsiya.

ИЗУЧЕНИЕ СИНТЕЗА И ИНГИБИРУЮЩИХ СВОЙСТВ ПРОИЗВОДНОГО N,N¹-ГЕКСАМЕТИЛЕН-БИС-[2,2¹-АМИНО- АЗОТОЛИЛ]-МОБОЧЕВИНЫ]

Хаитов Джонибек

Каршинский инженерно-экономический институт, Карши,
Узбекистан

Эгамназарова Фазилат

Каршинский инженерно-экономический институт, Карши,
Узбекистан

Аннотация. Синтез производного N,N¹-гексаметилен-бис-[(2,2¹-амино-азотолуолил) мочевины, рентгенофазовый анализ на основе физического анализа, подтверждение аморфности и кристаллической структуры макромолекул, метод ИК-спектроскопии. доказано. Кроме того, определены ингибирующие свойства синтезированного соединения и проанализирован уровень коррозионной защиты конструкций нефтегазовой промышленности.

Ключевые слова: рентгеновская фаза, 2,2¹-аминоазотолуол, N,N¹-гексаметилен, дифрактограмма, диазо-дифенил, ингибиторы, метод Дебая-Шерре, гексаметилендиизоцианат, концентрирование.

STUDYING THE SYNTHESIS AND INHIBITORY PROPERTIES OF N,N¹- HEXAMETHYLENE-BIS-[(2,2¹-AMINO-AZOTOLYL)-UREA] DERIVATIVE

Khaitov Jonibek

Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi, Uzbekistan

Egannazarova Fazilat

Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi, Uzbekistan


Abstract. Synthesis of N,N^1 -hexamethylene bis-[$(2,2^1\text{-amino-azotoluolyl})$ -urea] derivative, X-ray phase analysis based on physical analysis, macromolecule amorphous and crystal structure proof, IK-spectroscopy method Functional groups have been proven. In addition, the inhibitory properties of the synthesized compound were determined and the level of corrosion protection of oil and gas industry structures was analyzed.

Keywords: X-ray phase, $2,2^1\text{-amino-azotoluene}$, N,N^1 -hexamethylene, diffractogram, diazo-diphenyl, inhibitors, Debaya-Scherre method, hexamethylene diisocyanate, concentration.

Kirish. Respublikamizda yangi turdag'i moddalarni ishlab chiqarish, mahsulotlar turlarini ko'paytirish, mahalliy bozorni import o'rmini bosa oladigan kimyoviy noyob preparatlar bilan ta'minlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Raqobatbardosh tabiiy hamda ularning sintez mahsulotlari asosida noyob xossalarga ega preparatlar yaratish borasida muhim natijalarga erishilmoqda

Diizosianatlarga azo-fenil, diazo-difenil ko'prikl'i bog'lanishlarning kiritilishi

turli xil fiziologik faolliklarning paydo bo'lishiga, metallar karroziyasi uchun ingibitorlar, galogen tutuvchi polimerli qoplamlar uchun stabilizatorlar, shuningdek, vulkanizatsiyasi kauchuklari uchun eskirishga qarshi qo'shimcha, tabiiy va kimyoviy tolalarning matolarini bo'yash hamda bosish jarayonlarini amalga oshirishda qo'llash mumkin. Ushbu turdag'i birikmalarga difenil, azo-, bis-mochevina guruhlarini kiritishning yuqori aniqlikdagi yagona optimal usullarini aniqlash va N-H



1-jadval

N,N^1 -geksametilen bis-[$(2,2^1\text{-amino-azotoluolyl})$ -mochevina]ning fizik-kimyoviy kattaliklari

Nomlanishi	Unum i %	Tsuyq., $^{\circ}\text{C}$	R_f	Element analiz, N, %	
				Hisobl angan	Topilgan
N,N^1 -geksametilen bis-[$2,2^1\text{-amino-azotoluolyl}$]-mochevina]	91,0	158-160	0,60	18,10	18,04

funksional guruhlari bilan aralashishda harakatlanuvchi proton tufayli qo'llaniladigan reaksiyalarga bog'liqligini o'rghanish muhim.


Adabiyot tahlili va metodlar.

Izlanishlarimiz davomida, geksametilen-diizosianat bilan 2,2¹-amino-azotoluolning o'zaro ta'siri natijasida bis-mochevina hosilalarining yangi birikmalarini sintez qilib olindi.

Birinchi marta sintez qilingan mahsulot: N,N¹-geksametilen bis-[(2,2¹-amino-azotoluol)-mochevina] qo'ng'ir rangli agregat holati kristall. Suvda kam eriydi va organik erituvchilarda (DMAc, DMSO, DMFA, piridin, HCOOH, CCl₄ va boshqalar) oson eriydi. Sintez qilib olingan I-IV tozalik ko'rsatkichining I sistema (HCOOH: CHCl₃:CCl₄=4:4:3) R_f qiymati aniqlandi.

Sintez qilingan bis-mochevina hosilalarining makromolyekulasi amorf va kristall strukturalarni hosil qiladi. Birikmalarning amorf va kristall strukturalarini o'rghanish uchun rentgenofazaviy tahlillar amalgashirildi. Rentgenofazaviy tahlillardan olin-gan diffraktogrammalarini Debaya-Sherrera usulida tahlil qilindi. Debaya-Sherrera usuli

polikristallar va ularning aralashmalarini o'rghanish uchun kukunli usulidir. N,N¹-geksametilen bis-[(2,2¹-amino-azotoluol)-mochevina] namunasining rentgen nurlanishining difraksion tahlili shuni ko'rsatdiki, diffraktsiya spektlari kristall cho'qqilarni quyidagi graduslarda maksimal darajada burchaklari oralig'ida namoyon qiladi: $2\theta=6.51^\circ, 9.58^\circ, 11.62^\circ, 12.09^\circ, 13.07^\circ, 13.48^\circ, 13.77^\circ, 14.65^\circ, 16.13^\circ, 17.57^\circ, 18.60^\circ, 19.43^\circ, 20.41^\circ, 22.18^\circ, 22.55^\circ, 22.73^\circ, 22.96^\circ, 23.69^\circ, 24.63^\circ$ va 25.38° . $2\theta=19.43^\circ$ burchak qiymatida kuzatilgan eng intensiv maksimal, kristallografik spektrga (02-2) ishora qiladi, lekin tekislikda (122) mos keladigan $2\theta=22.96^\circ$ burchak qiymatidagi kristall spektr pastroq intensivlikka ega (3.1-rasm va 2-ilovaga qarang) $2\theta=19.43^\circ$ ga nisbatan, bu kristallitlarning ma'lum bir yo'nalishda mukammalligi bilan bog'liq. Rentgen fazasi tahlili shuni ko'rsatdiki, N,N¹-geksametilen bis-[(2,2¹-amino-azotoluol)-mochevina] panjara parametrleri bilan triklinik kristalli tizimga ega $a=15.20 \text{ \AA}$, $b=16.96 \text{ \AA}$, $c=10.51 \text{ \AA}$, $\alpha=102.87^\circ$, $\beta=102.47^\circ$, $\gamma=64.58^\circ$. N,N¹-geksametilen bis-[(2,2¹-amino-azotoluol)-




1-rasm. N,N¹ geksametilen diizosianat bis-[(2,2¹-azotoluol)-mochevina] rentgenofazaviy tahlil diffraktogrammasi

2-jadval

Namunalarining kristall panjara ko‘rsatkichlari

No	namunalarini kristall panjara ko‘rsatkichlari
1	$a=6.312 \text{ \AA}$
2	$b=8.74 \text{ \AA}$
3	$c=8.714 \text{ \AA}$
4	$\alpha=90^\circ$
5	$\beta=96.22^\circ$
6	$\gamma=90^\circ$



2-rasm. N,N' -geksametilen bis-[(1,1'-aminoazotoluolil)-mochevina]ning IQ-spektri

mochevina] namunasida Debaya-Sherrera usuli bilan hisoblangan kristalli o‘lchamlari 20 nm dan 70 nm gacha, N,N' -geksametilen bis- [(1,1'-amino-azobenzolil)-mochevina] uchun 3 nm dan 30 nm gacha bo‘lgan qiyomatni oladi.

Sintez qilib olingan N,N' -geksametilen bis-[(2,2'-azotoluolil)-mochevina] hisilalasining strukturasini isbotlash uchun IQ-spektroskopiya fizik tahlil usulidan foydalanildi.

N,N' -geksametilen bis-[(2,2'-amino-

azotoluolil)-mochevina] IQ-spektroskopiya usuli yordamida olingan spektrlarini tahlil qilganimizda $\begin{array}{c} -N-C-N \\ | \quad \backslash \\ H \quad O \end{array}$ 1624 cm^{-1} , $\begin{array}{c} -N- \\ | \\ H \end{array}$ 3334 cm^{-1} , $(\text{CH}_2)_6$ $770-736 \text{ cm}^{-1}$ yutilish sohalarida namoyon bo‘ldi.

Hozirgi vaqtida kimyoda turli kompyuter-kimyoviy dasturlardan foydalan-gan holda molekulalarni kvant-kimyoviy va molekulyar-dinamik hisob-kitoblar natijalari asosida har tomonlama tavfsiflash mumkin. Bunday natijalar asosida o‘rganilayotgan


molekulalarning xossalari, reaksiyon qobiliyati, eng muhimmi, reaksiya markazlarining xususiyatlarini oldindan taklif qilish mumkin.

Kvant kemyosi usullari yordamida olin-gan natijalar o'rganilayotgan molekulalar ning elektron zaryad zichligi, umumiy energiyasi, hosil bo'lish energiyasi, hosil bo'lish issiqligi, elektron energiyasi, yadro energiyasi va dipol momentining taqsimlanishi haqida muhim ma'lumotlarni beradi.

Muhokama: Bis-aromatik mochevina hosilalarini metallar korroziyasiga ingibitor konsentratsiyasi, pH muhitasi va temperaturaga ta'siri tadqiq qilindi. Tajriba natija-

lariga ko'ra, kislotali muhitning oshirilishi bilan korroziya tezligi oshib, himoyalanish darajasi pasayadi. Masalan, pH=5 bo'lgan muhitda Keyingi holatda 0,02-0,1 mass.% XJK-2 ingibitori ishtirokida pH=2 muhit bo'lganda korroziya tezliklari 0,42-0,84 g/m²s, himoyalanish darajalari 56,2-83,5% qiymatlariga ega bo'lishi ma'lum bo'ldi, XJK-2 (0,1%) ingibitori pH=5 bo'lgan muhitda korroziya tezligi 0,38 g/m²s, himoyalanish darajasi esa 86,4% ni tashkil etdi.

Tajriba sinovlari gravimetrik usulda pH 2 dan 11 gacha bo'lgan muhitda, 40°C haroratda olib borildi. Metallar korroziyasi



3.9-rasm *N,N'-geksametilen bis-[(2,2'-amino-azotoluol)-mochevina]*

a) 3D fazoviy strukturasi; b) elektron bulutlarning taqsimlanishi; c) molekulalarda elektron zichligi taqsimoti

3-jadval

Metallar korroziya darajasi ingibitor konsentratsiyasini taqqoslash jadvali

№	Ingibitor nomi va mass. ulushi %	pH muhit							
		2		5		9		11	
		KT g/m ² s	HD %						
1	Namuna metall (ingibitorsiz)	1.8	-	1.8	-	1.89	-	1.09	-
2	XJK-2 (0,02%)	0.84	56.2	0.48	62.6	0.72	47.5	0.77	44.6
3	XJK-2 (0,05%)	0.56	77.4	0.36	79.3	0.43	79.8	0.45	76.3
4	XJK-2 (0,1%)	0.42	83.5	0.38	86.4	0.35	87.6	0.44	84.9
6	“Kvatramin-1001”	0.62	82.8	0.55	85.2	0.51	87.4	0.52	86.7

tezligini kamaytiruvchi ingibitor sifatida o‘rganilib, tadqiqot tajribalari o‘tkazildi.

St.3 markali po‘latga sintez qilingan ingibitorlarning ta’siri turli pH muhitlarida, preparatning har xil kontentratsiyalarida 24 soat vaqt mobaynida amalga oshirildi. Sinovlar natijalariga ko‘ra, o‘rganilayotgan N,N¹-geksametilen bis-[2,2¹-amino-azoto-luolil)-mochevina] preparatlari ishtirokidagi pH muhitni 2 dan 11 gacha ortishi bilan, kislotali va ishqoriy muhitda metallar korroziya darajasi ingibitor konsentratsiyasining ortishi korroziya tezligini kamaytirdi va himoya darajasini oshirdi.

Ushbu sinov tajriba ishlari “Sho‘rtan neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasi” mazkaziy laboratoriysi sharoitida amalga

oshirildi. Sinov natijalari asosida o‘rganilgan preparatlardan XJK-2 (N,N¹-geksametilen bis-[2,2¹-amino-azotoluolil)-mochevina]) nisbatan effektiv ingibitor ekanligi aniqlandi.

Xulosa. Sintez qilib olingan bis-mochevina hosilalari orasidan metallarning korroziyalanishiga qarshi samarali ingibitorlik xossalari o‘rganildi (I moddaning 0,1% eritmasi pH 2 muhitida KT-0,33 g/m²s gacha kamaytirdi, HD-85,7% gacha oshirdi, muhit pH=11 bo‘lganda turli konsentratsiyalarda korroziya tezliklari 0,74-0,41 g/m²sga kamaytirdi, himoyalanish darajalarini oshirdi) va import qilinib olinayotgan ingibitor o‘rnini bosa olishi isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- Махсумов Абдулхамид Гафурович, Хайитов Жонибек Курбанович СИНТЕЗЫ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ БИС-АРОМАТИЧЕСКИХ ПРОИЗВОДНЫХ МОЧЕВИНЫ // Universum: технические науки. 2022. №1-3

- (94). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sintezy-biologicheskaya-aktivnost-bis-aromaticeskikh-proizvodnyh-mocheviny> (дата обращения: 28.02.2024).
2. A.G.Mahsumov, J.Q.Xaitov, & Х.И.Неъматов. (2022). YANGI N2N3-GEKSAMETILIN BIS-[(4-AMINO-AZO-BENZOL)-MOCHEVINANI SINTEZ QILIB OLISH VA XOSSALARINI O'RGANISH. Journal of Integrated Education and Research, 1(5), 376–383. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/515>
 3. Хайтов Жонибек Курбанович, Махсумов Абдухамид Гафурович, Абсалямова Гулноза Маматкуловна, Исмаилов Бобурбек Махмуджанович СИНТЕЗ N,N1-ГЕКСАМЕТИЛЕН-БИС-[(1,11-АМИНОНАФТАЛИН)-МОЧЕВИНА] И ЕГО СВОЙСТВА // Universum: химия и биология. 2023. №5-3 (107). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sintez-n-n1-geksametilen-bis-1-11-aminonaftalin-mochevina-i-ego-svoystva> (дата обращения: 28.02.2024).
 4. Egamnazarova, F. D. (2023). METALLARNI KORROZIYADAN HIMOYA QILISH: ZAMONAVIY QOPLAMA TEXNOLOGIYALARI. Innovative Development in Educational Activities, 2(11), 430-434.
 5. Rizayev, S. A. (2022). POLIMER SORBENTLAR YORDAMIDA ERITMALARDAN ORGANIK REAGENTLARNI AJRATIB OLISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 978-983.
 6. Raxmatov, E.A., Abdullayev, A. A., & Rizayev, S. A. (2022). AGRESSIV MUHITGA CHIDAMLI POLIFUNKSIONAL ORGANOMINERAL QOPLAMALAR XOSSALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 239-245.